# 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish

# bakalavriat ta’lim yo’nalishi.

60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish — qurilish sohasidagi yo’nalish bo’lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo’yicha boshqarish, tashkiliy masalalar yechimlarini rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog’liq kompleks masalalardan iborat kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

## Kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- qurilishning va kommunal infratuzilmasidagi turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkillashtirishda boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega.